

BUDJET TASHKILOTLARINI MOLİYALASHTIRISHDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING O'RNI

Dadaboyev Abdurahmon Ne'matjon o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali Iqtisodiyot kafedrası, MPFC_N-25U guruh
magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tizimida budjetdan tashqari mablag'larning o'ri va ahamiyati nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi orqali amalga oshirilishi, budjet va budjetdan tashqari mablag'larning yagona g'azna hisobvaraqlarida jamlanishi hamda ularning kassa usulida hisobga olinishi masalalari yoritilgan. Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larning shakllanish manbalari, jumladan, pullik xizmatlar, to'lov-kontrakt mablag'lari, rivojlantirish jamg'armalari va boshqa tushumlar tahlil qilinib, ularning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli asoslab berilgan. Shuningdek, ushbu mablag'lar bo'yicha daromad va xarajatlar smetalarining ijrosi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni tashkil etishning amaldagi mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lardan samarali, maqsadli va shaffof foydalanish moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar : budjet tashkilotlari, budjetdan tashqari mablag'lar, g'aznachilik tizimi, yagona g'azna hisobvaraqlari, moliyalashtirish manbalari, kassa usuli, moliyaviy nazorat.

Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar yagona g'azna hisobvarag'iga kiritiladi va ularga tegishli respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar hamda davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarida aks ettiriladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular mazkur tashkilotlarning daromadlarida aks ettiriladi.

Davlat budjetiga chet el valyutasida to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar, shuningdek budjet tashkilotlarining chet el valyutasida tushadigan budjetdan tashqari mablag'lari G'aznachilikning bankdagi valyuta hisob varaqlariga kiritiladi.

Budjetni g'azna ijrosiga o'tilishi budjet mablag'lari bilan birga budjetdan mablasug'oluvchi tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari ham to'laligicha g'azna ijrosiga qamrab olindi.

Davlat budjeti ijrosining G'aznachilik tizimi joriy qilinib, bujet daromadlari va xarajatlarining ijrosi kassa usulida amalga oshirilishi mablag'larni samarali va maqsadli



sarflash hamda nazorat qilish imkoniyatini bermoqda. Budjet tashkilotlari xarajatlarning to'lovi g'aznachilik orqali amalga oshirilib, budjet mablag'larini ortiqcha band qilmaslikni ta'minlamoqda. Islohotlarni amalga oshirish davomida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari ham g'aznachilikka qamrab olinib uning kassa ijrosi ham g'aznachilik tomonidan amalga oshirilmoqda. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining tashkilot shaxsiy hisobraqamiga kelib tushishi va sarflanishi kassa usulida g'aznachilikda hisobga olinadi. Budjet tashkilotlarida esa budjetdan tashqari mablag'larning tashkilot shaxsiy hisobraqamiga kelib tushishi va sarflanishi kassa va hisob usulida aks ettiriladi.

Budjet tashkilotlari faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlari faqat budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmasdan balki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli "Budjet muassasalarini mablasug'bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi Qaroriga asosan budjetdan tashqari mablag'lar shakllantirishi belgilangan. Ushbu qarorga ko'ra budjet tashkilotlari budjetdan tashqari mablag'lari shakllanish manbaalari va sarflash yo'nalishlari tartibi belgilangan.



1-rasm. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari.



Budjet tashkilotlari budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi hisobini tashkil qilish mablag'larni smetalar doirasida

sarflashning amaldagi qonunchilikka muvofiqligini ta'minlashga xizmat qilib, mablag'lar oqimini nazorat qilish uchun axborotlar bilan ta'minlaydi. Budjet tashkilotlari hisobvaraqlaridagi budjetdan tashqari mablag'lar hisobini tashkil etishdan maksad foydalanuvchilar (ichki, tashki)ni daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayonida budjetdan tashqari mablag'lar harkati bo'yicha o'z vaktida, to'liq hamda anik buxgalteriya va moliyaviy axborotlari bilan ta'minlashdan iborat.

Budjet tashkilotlarida hisobvaraqlardagi budjetdan tashqari mablag'lar hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

- hisobvaraqlardagi budjetdan tashqari mablag'lar hisobini amaldagi me'yoriy-xuquqiy hujjatlar asosida tashkil etish;
- budjet tashkilotlari hisobvaraqlaridagi budjetdan tashqari mablag'larni maksadli sarflanishini ta'minlash;
- boshqa budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha muomalalarni hujjatlashtirish va hisob registrlarida aks ettirish;
- budjet tashkilotlari hisobvaraqlaridagi boshqa budjetdan tashqari mablag'lar tug'risidagi to'liq xamda anik, ma'lumotlarni shakllantirish;
- budjet tashkilotlarining boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish va hisobotlarni tuzish.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari g'aznachilikka qamrab olinib, ular bo'yicha alohida shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochiladi. Shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladigan quyidagi budjetdan tashqari mablag'lar mavjud: to'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar, ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, boshqa budjetdan tashqari mablag'lar, boshqa hisobvaraqlardagi pul mablag'lari, valyuta hisobvarag'i, budjet tashkilotining vaqtincha ixtiyorida bo'ladigan mablag'lar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, budjet tashkilotlarini moliyalashtirishda budjetdan tashqari mablag'lar muhim moliyaviy manba sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular budjet mablag'lari yetishmovchiligi sharoitida tashkilotlar faoliyatining uzluksizligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Davlat budjeti ijrosida g'aznachilik tizimining joriy etilishi budjet va budjetdan tashqari mablag'lar harakatining shaffofligi, ularning kassa usulida hisobga olinishi va qat'iy nazorat qilinishini ta'minlab, moliyaviy intizomni kuchaytirdi. Budjetdan tashqari mablag'larning daromad va xarajatlar smetalari asosida rejalashtirilishi hamda buxgalteriya hisobi orqali to'liq aks



ettirilishi resurslardan maqsadli va samarali foydalanish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ushbu mablag'lar bo'yicha moliyaviy axborotlarning aniqligi va o'z vaqtida shakllantirilishi ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, budjetdan tashqari mablag'lardan oqilona foydalanish budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Premchand, A. Public Financial Management. Washington, DC: International Monetary Fund, 1999.
2. Allen, Richard, and Daniel Tommasi. Managing Public Expenditure: A Reference Book for Transition Countries. Paris: OECD, 2001.
3. Pavlova, L. P. Byudzhetskaya sistema i byudzhetnyy protsess. Moskva: Finansy i statistika, 2010.
4. Novodvorskiy, V. D., and O. V. Rudakov. Bukhgalterskiy uchët v byudzhetnykh uchrezhdeniyakh. Moskva: Infra-M, 2012.
5. To'rayev, B. X. Davlat moliyasini boshqarish. Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
6. Shoalimov, Sh. Sh. Budjet hisobi va hisobotini takomillashtirish masalalari. Toshkent: Moliya, 2019.
7. Xudoyberdiyev, A. A. "Ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt mablag'lari hisobi va nazorati." Moliya va bank ishi jurnali, no. 3 (2020): 45-52.
8. O'zbekiston Respublikasi. Budjet kodeksi. Toshkent: Adliya vazirligi, 2013.
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bo'yicha yo'riqnoma. Toshkent, 2020.
10. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. Экономика и социум, (2 (45)), 34-36.
11. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10, 2107-2114.
12. Ubaydullaev, T., & Holmirzaev, U. (2018). PECULIARITIES OF TAXATION OF INDIVIDUALS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (11 (54)), 54-57.
13. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLİYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 82-86.



14. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent–2023.

15. Xolmirzayev, U. A., & Hakimova, G. A. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. Экономика и социум, (5-1 (120)), 938-941.

16. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI. Journal of new century innovations, 74(2), 65-70.

17. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO'NALISHLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(5), 17-21.

18. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIVAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. Interpretation and researches, 1(3), 42-50.

19. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Questions of Economics and Management, 5(7), 6.

20. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. Tashkent" economics-finance"—2013.

21. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(11), 38-47.

22. Xolmirzayev, U. A., & Hakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

23. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 203-209.

24. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(7).

25. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVASION FAOLIYATNING MOLIVAVIY TA'MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 142-146.

26. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).



27. Xolmirzayev, U. B. (2024). Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(6).
28. Xolmirzayev, U. B., & Hakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIVAVIY MEXANIZMI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 96-98.
29. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO‘RIB CHIQUILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. Educational research in universal sciences, 2(3), 424-432.
30. Hakimov, B. J., Alimov, B. B., Xolmirzayev, U. A., & Polatov, A. X. (2013). Iqtisodiy tahlil nazariyasi. T:“Iqtisod-Moliya”-2013.
31. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 42(1), 197-206.
32. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
33. Холмирзаев, У. А., & Самижонов, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 755-766.
34. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 767-779.
35. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO‘NALISHLARI. Journal of new century innovations, 74(2), 65-70.
36. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(10).
37. Isomukhamedov, A., Kholmirzayev, U., Tursunov, U., Ergashev, I., Aliyeva, G., Karimova, S., & Nadirov, U. (2025). USING AI ENTERPRISE EXPENSES PREDICTION AND BUDGETING MECHANISMS. Reliability: Theory & Applications, 20(SI 10 (88)), 365-371.
38. Xolmirzayev, U. B., & Ubaydullayev, T. O‘zbekiston Respublikasida Davlat-xususiy Sheriklik Sohasida Me'yoriy-huquqiy Bazani Ishlab Chiqish. Green Economy and Development, 3(10), 667114.





39. Batirova, R., & Xolmirzayev, U. B. Ulgurji Savdo Qoidalari Va Chakana Savdodan Farqli Tomonlari. Green Economy and Development, 3(9), 666890.
40. ХОЛМИРЗАЕВ, У., & КАМОЛДИНОВ, О. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 625-627.

